

3-SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI "CHIN DO'ST" ERTAGINI KREATIV TAHLIL QILISH USULLARI

Jumayev Ro'ziqul Xoliqulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti, Buxoro davlat pedagogika instituti

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-4881-2441>

Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola 3-sinf o'quvchilari uchun "Chin do'st" ertagining kreativ tahlilini o'tkazishga qaratilgan. Maqola tahlilida uchta mashina o'rtasidagi do'stlik va yordam haqida so'z boradi. O'quvchilar ertakni Mind Mapping, SWOT tahlili, sahnalashtirish va dramatisatsiya, rasm chizish va ertakni davom ettirish kabi kreativ tahlil usullari orqali o'rganishlari ochib berilgan. Bu usullar orqali o'quvchilar adabiy tafakkurini rivojlantiradi, do'stlik, yordam va chin do'stlik tushunchalarini anglaydilar.

Kalit so'zlar: Chin do'st, kreativ tahlil, 3-sinf Mind Mapping, SWOT tahlili, sahnalashtirish, dramatisatsiya, rasm chizish, ertakni davom ettirish, do'stlik, yordam, adabiy tafakkur.

МЕТОДЫ КРЕАТИВНОГО АНАЛИЗА СКАЗКИ «НАСТОЯЩИЙ ДРУГ» ИЗ УЧЕБНИКА «ГРАМОТНОЕ ЧТЕНИЕ» ДЛЯ 3 КЛАССА

Джумаев Рузикул Холикулович

доктор философских наук по филологическим наукам (PhD), доцент кафедры начального образования. Бухарский государственный педагогический институт

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-4881-2441>

Ибодуллаева Мадина Муаззафар кизи

Магистр специальности «Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование)»

Аннотация: В данной статье рассматривается проведение креативного анализа сказки «Настоящий друг» для учеников 3 класса. Анализ сказки посвящен дружбе и взаимопомощи между тремя машинами. Учащиеся изучают сказку с использованием таких креативных методов, как Mind Mapping, SWOT-анализ, инсценировка и драматизация, рисование и продолжение сказки. Эти методы помогают развивать литературное мышление, а также понимание понятий дружбы, помощи и настоящей дружбы.

Ключевые слова: Настоящий друг, креативный анализ, 3 класс, Mind Mapping, SWOT-анализ, инсценировка, драматизация, рисование, продолжение сказки, дружба, помощь, литературное мышление.

CREATIVE ANALYSIS METHODS OF THE FAIRY TALE “TRUE FRIEND” FROM THE “READING LITERACY” TEXTBOOK FOR 3RD GRADE

Jumayev Ruzikul Kholikulovich

doctor of philosophy in philological sciences (PhD), associate professor of the department of elementary education. Bukhara state pedagogical institute

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-4881-2441>

Ibodullayeva Madina Muzaffar kizi

Master of the Specialty “Theory and Methodology of Education and Training (Primary Education)”

Abstract: This article explores the creative analysis of the fairy tale “True Friend” for 3rd-grade students. The analysis focuses on friendship and mutual assistance between three machines. Students study the fairy tale using creative methods such as Mind Mapping, SWOT analysis, staging and dramatization, drawing, and continuing the story. These methods help develop literary thinking and understanding of the concepts of friendship, help, and true friendship.

Keywords: True Friend, creative analysis, 3rd grade, Mind Mapping, SWOT analysis, staging, dramatization, drawing, story continuation, friendship, help, literary thinking.

Kirish. Badiiy asar ustida ishlashda kreativ yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu usullar o‘quvchilarni faqat o‘qilgan matnni tushunishga emas, balki o‘z fikrlarini yaratishga va o‘zgartirishga ham undaydi. Kreativ yondashuvlar o‘quvchilarga badiiy asarning mazmunini chuqurroq anglash, tahlil qilish va yangi g‘oyalar yaratish imkonini beradi. Quyida badiiy asar ustida ishlashning samarali kreativ usullari keltirilgan:

Metodlar.1. "Sahnalashtirish va dramatizatsiya"

Asarni sahnalashtirish orqali o‘quvchilar o‘qigan asarini vizual va amaliy tarzda his qilishadi. Bu usul nafaqat matnni tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilarga ijodiy ifoda ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ertak yoki hikoyaning qismlarini sahnalashtirish.

Qahramonlarning dialoglarini ijro etish va ularni o‘zgarishlar kiritgan holda qayta yaratish. Matnni teatr tarzida o‘ynash orqali o‘quvchilarni matn bilan chuqurroq bog‘lash.

2. "Rasm chizish va tasvirlash"

Badiiy asarni vizual tarzda tasvirlash o‘quvchilarni kreativ fikrlashga jalb qiladi. Rasm chizish nafaqat asar mazmunini yaxshiroq tushunishga, balki o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga ham yordam beradi.

Asar qahramonlarini yoki voqealarini rasmga tushirish.

Ertakning eng muhim sahnalarini yoki xayoliy tasvirlarini yaratish. Qahramonlarning ko‘rinishi, muhit va voqea joylarini tasvirlash orqali matnni o‘ziga xos shaklda qayta ifodalash.

3. "Ertakni davom ettirish"

O'quvchilarga o'qigan asarlarini davom ettirishni so'rash, ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Bu usulda o'quvchilar asar yakuniga o'z variantlarini qo'shib, yangi syujetlar yaratishadi.

Asar tugashi bilan o'quvchilarga uning boshqa tugash variantlarini yozishni taklif qilish.

"Agar qahramon boshqa qaror qilganida nima bo'lardi?" yoki "Sizningcha, ertak qanday davom etishi kerak?" kabi savollar orqali yangi tugashlar yaratish.

O'quvchilar o'zlarining variantlarini yozib, sinf bilan baham ko'rishadi.

4. "Qahramonlar va voqealarni qayta yozish"

Badiiy asarni o'zgarishlar kiritish orqali qayta yozish o'quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Bu usulda o'quvchilar asarning mavjud qahramonlarini yoki voqealarini o'zgartirib, yangilab yaratishadi. Asarning asosiy qahramonlarini yangi fazilatlar bilan tasvirlash. Yangi qahramonlarni kiritish va ular bilan voqealarni qayta yozish. Qahramonlarning harakatlarini yoki qarorlarini o'zgartirish va ularning natijalarini tahlil qilish.

5. "Asarni boshqa shaklda taqdim etish"

Asarni boshqa shaklga (masalan, pyesa, multfilm, komiks, video) o'zgartirish o'quvchilarga kreativ yondashuvni o'rgatadi va ular o'qigan matnni boshqa formatlarda ifodalashga yordam beradi.

Asarni pyesa yoki film ssenariysi tarzida qayta yozish. Ertakni komiks shaklida tasvirlash yoki animatsion tarzda ko'rsatish. Asarni audiokitob yoki videoklip tarzida yaratish, bunda o'quvchilar o'zlarini rejissyor sifatida his qilishadi.

6. "Axloqiy saboqlarni tahlil qilish"

Asar orqali axloqiy saboqlarni chiqarish va ulardan o'quvchilarning hayotiga qanday ta'sir qilishini o'rganish. Bu usul o'quvchilarni o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini ifodalashga undaydi. Asardan olingan axloqiy saboqlarni o'quvchilarga muhokama qilish. "Bu voqea sizga qanday ta'sir etdi?" yoki "Agar siz qahramonning o'rnida bo'lsangiz, qanday qaror qabul qilardingiz?" kabi savollar orqali axloqiy masalalarni baholash. O'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga imkon berish.

7. "Multimedia vositalaridan foydalanish"

Asarni multimedia vositalari orqali taqdim etish o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va o'qish jarayonini interaktiv qilish imkonini beradi.

Asar bilan bog'liq videolar, audiolar, interaktiv taqdimotlar yoki raqamli ilovalar orqali o'quvchilarga materialni taqdim etish. O'quvchilarga asarning ayrim qismlarini interaktiv dasturlar orqali ko'rsatish va ularni yangi shakllarda baholash.

8. "O'quvchilarni guruhlariga bo'lish va muhokama qilish"

O'quvchilarga badiiy asar bo'yicha guruhlar ichida munozara va tahlil qilishni tashkil etish, ularni o'z fikrlarini jamoaviy tarzda erkin ifodalashga undaydi. Guruhlarga bo'lish va har bir guruhga asarning bir qismini tahlil qilishni topshirish. Asarning muhim qismlarini

muhokama qilish va guruhlar o'rtasida fikr almashish. O'quvchilarga turli nuqtai nazardan asarni baholash imkoniyatini berish.

Ertaklar bolalarning aqliy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf darsliklarida ular asosiy o'quv material sifatida qo'llanilib, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi, tasavvurlarini kengaytiradi va ularni o'qish savodxonligi bo'yicha keyingi bosqichlarga tayyorlaydi. Shu sababli, ertaklarni tahlil qilishni kreativ usullar asosida tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

"Chin do'st" ertagi o'zida axloqiy saboqlarni, do'stlik va bir-birini tushunish kabi muhim qadriyatlarni o'zida mujassam etgan badiiy asardir. Ushbu ertakni kreativ usulda tahlil qilish bolalarda nafaqat mantiqiy, balki ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Quyida ertakni kreativ tahlil qilishning ba'zi samarali usullari keltirilgan:

Natijalar.1."Sahnalashtirish va dramatizatsiya" usuli bolalar uchun ertakni chuqurroq tushunish va voqealarni jonli tarzda tasavvur qilish imkonini beradi. Bu usul bolalar o'quv jarayonida aktiv ishtirok etishlari uchun juda samarali bo'lib, ularning ijodiy fikrlash va his-tuyg'ularini ifodalashga yordam beradi. "Chin do'st" ertagini sahnalashtirish orqali o'quvchilarning fikrlarini va hissiyotlarini jonlantirish mumkin.

1. Dramatik sahna mazmuni:

Ertakni dramatik tarzda ijro etish uchun uchta asosiy qahramonning xarakterlarini sahnada jonlantirish va ular o'rtasidagi voqealarni ko'rsatish kerak. Har bir qahramonning fazilatlari va nuqsonlarini ta'kidlash orqali chin do'stlik g'oyasini namoyon qilish maqsad qilinadi.

2. Qahramonlar va rollar:

Katta ulov – mag'rur va o'zini kuchli deb hisoblaydigan avtomobil.

Bejirim ulov – o'z go'zalligini maqtaydigan, biroq g'ururli avtomobil.

Uchinchi ulov – kamtar, mehribon va haqiqiy do'st sifatida o'zini ko'rsatadigan avtomobil.

Izohchi (narrator) – sahnadagi voqealarni tushuntiruvchi.

3. Sahna ko'rinishlari:

Boshlang'ich sahna: Tanishtirish

Uchta avtomobil yo'lda ketmoqda. Har biri o'z fazilatlarini maqtaydi. Katta ulov o'zining kuchiga, Bejirim ulov esa chiroyiga ishora qiladi. Uchinchi ulov esa sukut saqlab, boshqalarning gaplarini kuzatib boradi.

Dialoglar:

Katta ulov: "Men dunyodagi eng kuchli avtomobilman! Hech narsa mendan o'tmaydi."

Bejirim ulov: "Go'zallik har narsadan ustun. Hamma men tomonga havas bilan qaraydi."

Uchinchi ulov: (Jim, mulohaza qiladi.)

Tug'un: Qiyinchilik yuzaga keladi

Yo'lda bejirim ulovning suvi tugaydi va u davom eta olmay qoladi. Katta ulov yordam

bermay, yo'lida davom etadi. Bejirim ulov yordam so'rashdan uyaladi. Uchinchi ulov esa bu vaziyatni ko'rib, yordamga shoshiladi.

Dialoglar:

Bejirim ulov (chaqiradi): "Voy, endi nima qilaman? Suvim tugadi. Ammo yordam so'rash... Yo'q, hech kimga yordam so'rab yalinmayman!"

Katta ulov: "Bunday oddiy muammoni ham hal qila olmayapsanmi? Men ketdim, yo'l uzoq!"

Uchinchi ulov: "Hechqisi yo'q, men yordam beraman. Biz bir-birimizni qo'llashimiz kerak."

Avj nuqtasi: Haqiqiy do'stning fazilati

Uchinchi ulov Bejirim ulovga yordam beradi. Bejirim ulov minnatdorchilik bildiradi. Katta ulov esa o'z xatosini anglab, uzr so'raydi.

Dialoglar:

Bejirim ulov: "Sizga rahmat, do'st. O'zimni yomon tutganimdan afsusdaman."

Katta ulov: "Kechirasiz, men noto'g'ri fikrda edim. Chin do'stlik kuch va go'zallikda emas, yordam va mehribonlikda ekan."

Xulosa: O'zgarish va dars.

Uchala ulov ham do'stlikning ahamiyatini tushunadi. Endilikda ular o'zaro yordam va hurmat bilan yo'lida davom etadi.

"Haqiqiy do'st kuch va g'urur bilan emas, mehr va samimiy yordam bilan aniqlanadi. Chin do'st – bu har doim yoningizda bo'ladigan inson yoki ulovdir!"

4. Dekoratsiya va texnik jihozlar:

Dekoratsiya: Sahnani avtomobil yo'li kabi bezatish, daraxtlar, benzin quyish stansiyasini qo'shish.

Rekvizitlar: Mashina qiyofasini beruvchi katta karton qoplamalar, har bir avtomobilga mos kostyumlar.

Fon musiqasi: Yo'l harakati tovushlari, avtomobil motorining ovozi.

5. Tomoshabinlar uchun dars va savollar:

Ijroddan so'ng, tomoshabinlarga quyidagi savollar berish mumkin:

"Katta ulov va Bejirim ulovning xatolari nimada edi?"

"Nima uchun Uchinchi ulov haqiqiy do'st deb hisoblandi?"

"Sizningcha, haqiqiy do'stning qanday fazilatlari bo'lishi kerak?"

6. Maqsad:

Ushbu dramatizatsiya orqali tomoshabinlar do'stlikning haqiqiy mohiyatini, mehribonlik va kamtarlikning kuchini anglaydi. Bu usul nafaqat o'quvchilarni voqea mazmuniga jalb qiladi, balki ularda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.

2."Rasm chizish va tasvirlash" usuli bolalar uchun ertakdagi voqealarni tasavvur qilish va ijodiy ifodalashning samarali vositasidir. Bu usul, o'quvchilarga ertakdagi qahramonlar, joylar va muhim sahnalarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi. Ertakning ko'rinishini

va mazmunini tasvirlash orqali bolalar, o'z fikrlarini aniq va jozibali tarzda ifodalashni o'rganadilar.

1. Rasm uchun asosiy sahnalar:

Ertakda eng muhim voqealar tanlanadi va tasvirlanadi. Har bir sahna uchun alohida rasm chiziladi.

Sahna 1: Ulovlarning tanishtirishi.

Chizish: Uchta avtomobil yo'lda ketmoqda. Katta ulov o'zining kuchiga ishora qilib gavgalantirilgan (masalan, tog' fonida). Bejirim ulov go'zalligini ko'rsatish uchun oyna va g'ildiraklar yaltiroq chiziladi. Uchinchi ulov esa kamtar, oddiy, ammo o'ziga xos bir ko'rinishda tasvirlanadi.

Tasvirlash: "Uchta ulov yo'lda ketmoqda. Katta ulov o'z kuchini maqtaydi, Bejirim ulov go'zalligidan mag'rurlanadi, Uchinchi ulov esa kamtarlik bilan sukut saqlab kuzatadi."

Sahna 2: Bejirim ulovning qiyinchilikka uchrashi

Chizish: Bejirim ulov daraxt soyasida to'xtab qolgan, suv yo'qligidan aziyat chekmoqda. Katta ulov yordam bermay, yo'lda davom etmoqda. Uchinchi ulov esa orqada, Bejirim ulovga yordam ko'rsatishga tayyor. Daraxtlar, yo'l va osmon fonida ulovlar tasvirlanadi.

Tasvirlash: "Bejirim ulovning suvi tugadi. Katta ulov mag'rurlik bilan yordam bermasdan ketdi. Uchinchi ulov esa yordam berishga shoshildi."

Sahna 3: Uchinchi ulovning yordam berishi

Chizish: Uchinchi ulov o'z suvidan Bejirim ulovga quyib bermoqda. Bejirim ulovning yuzi (avtomobilning chiroq va oynalarida ifodalanadi) quvonchni aks ettiradi. Atrofda quyoshli kun, yo'l va tabiat ko'rinishi qo'shiladi.

Tasvirlash: "Uchinchi ulov hech ikkilanmasdan yordam berdi. Bu harakat uning haqiqiy do'st ekanligini ko'rsatdi."

Sahna 4: Katta ulovning kechirim so'rashi

Chizish: Katta ulov va Bejirim ulov Uchinchi ulovga yaqinlashmoqda, yuzlarida minnatdorchilik va kechirim so'rash ifodasi. Uchinchi ulov kamtarlik bilan ularga javob bermoqda. Orqa fon shahar ko'chasi, quyosh botayotgan osmon.

Tasvirlash: "Katta ulov va Bejirim ulov o'z xatolarini anglab, Uchinchi ulovdan kechirim so'rashdi. Ular chin do'stlikni qadrlashni o'rgandilar."

2. Ish jarayoni:

Bolalar bilan ish:

O'quvchilar ertakning sahnalarini qaysi tartibda chizishni muhokama qilishadi.

Har bir rasmni chizgandan keyin, ularning mazmunini tasvirlab yozib chiqadilar.

Rang-barang bo'yoqlardan foydalanib, ertakdagi har bir qahramonning xarakterini aks ettirishadi. (Masalan, Katta ulov uchun quyuk ranglar, Bejirim ulov uchun yorqin va porloq ranglar, Uchinchi ulov uchun sokin, pastel ranglar.)

3. Tasvirni mustahkamlash uchun savollar:

Rasm chizganingizda, qaysi qahramonning xarakterini ko‘proq aks ettirishga harakat qildingiz?

Uchinchi ulovning qaysi harakati sizga eng ko‘p ta’sir qildi?

Sizningcha, haqiqiy do‘st qanday tasvirlanishi kerak?

4. Yaratilgan rasm va tasvirlarni ko‘rgazma qilish:

Ertak asosida chizilgan rasmlar sinfda devorga osiladi va ularning yoniga qisqacha izohlar qo‘yiladi. Bolalar o‘z chizgan rasmlarini tushuntiradi va hikoya qahramonlari haqida fikr bildiradi.

"Rasm chizish va tasvirlash" usuli "Chin do‘st" ertagini o‘quvchilarga yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ularni ijodiy yondashuvni rivojlantirishga undaydi. Ertakdagi qahramonlarni, voqealarni va muhim sahnalarni rasmga tushirish o‘quvchilarga nafaqat ertak mazmunini eslab qolish, balki o‘z fikrlarini va hissiyotlarini ko‘rsatilgan rasmda ifodalash imkoniyatini beradi. Bu usul, bolalarning vizual va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa: " Chin do‘st " ertagini kreativ usullar orqali tahlil qilish, bolalarning o‘z fikrlarini ifodalash, ijodiy va tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv, nafaqat bolalarga axloqiy saboqlarni o‘rgatadi, balki ular uchun o‘qish, yozish va yaratish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Kreativ tahlil qilish usullari, bolalarning bilim olish jarayonini yanada interaktiv va ko‘proq ishtirok etishga rag‘batlantiradi, shu bilan birga ularni hayotga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Nosir, 2009. – 351 b.

2. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

3. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

4. Toirova M.E., “O‘qish savodxonligi ” 3- sinf uchun darslik. I qism. “Novda Edutainment”. 2023yil. 80 b.

5. Aydarova U.B., Azizova N.K. “O‘qish savodxonligi ” 3- sinf uchun darslik. III qism. “Novda Edutainment”. 2023yil. 80 b.